

<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18722777>

DAVLAT IJTIMOYIY SUG'URTASI AMALGA OSHIRISH TIZIMINING SAMARADORLIGI

Jamoat xavfsizligi universiteti

Iqtisodiy fanlar kafedrası

katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti

“Iqtisodiy xavfsizlik” yo‘nalishi 4-bosqich kursanti

Komilov Akobir Bobir o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha joriy yilda o'rnatilgan yangi tartiblar, jumladan ijtimoiy soliq tushumidan Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga yo'naltiriladigan ulushi, ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, to'lovlarni tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar o'rganilgan. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari tarzidagi to'lovlarni tayinlash tartibi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy sug'urta, yagona milliy ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya milliy agentligi, moliyaviy agent, ijtimoiy karta, nafaqa, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi, ijtimoiy himoya yagona reyestri.

Annotation: This article covers the new procedures established in the current year for State Social Insurance, including the share of social tax revenues allocated to the State Social Insurance Fund, specific features of calculating social insurance payments, measures to improve the system of assigning and paying benefits. The procedure for

assigning payments in the form of pregnancy and childbirth benefits and temporary disability benefits information system.

Key words: social insurance, unified national social protection, national agency for social protection, financial agent, social card, benefit, temporary disability benefit, unified register of social protection.

Аннотация: В данной статье освещены новые порядки, установленные в текущем году по Государственному социальному страхованию, включая долю поступлений социального налога, направляемую в Государственный фонд социального страхования, особенности расчета выплат по социальному страхованию, меры по совершенствованию системы назначения и выплаты пособий. Порядок назначения выплат в виде пособий по беременности и родам и по временной нетрудоспособности через информационный модуль.

Ключевые слова: социальное страхование, единая национальная социальная защита, национальное агентство социальной защиты, финансовый агент, социальная карта, пособие, пособие по временной нетрудоспособности, единый реестр социальной защиты.

Yurtimizda fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 53-maqsadida majburiy ijtimoiy kafolatlar bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish vazifasining belgilanganligi buning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-206-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari tarzidagi to'lovlar fuqarolarning murojaati talab etilmagan (proaktiv shaklda)

holda, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimining “Ijtimoiy sug‘urta” axborot moduli orqali tayinlanishi belgilab qo‘yildi. Joriy yildan boshlab sug‘urtalangan shaxslarga davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida jalb etilgan tijorat banki tomonidan sug‘urtalangan shaxslarda mavjud ijtimoiy karta yoki bank kartasi orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi. Jamg‘arma davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, o‘zining mustaqil balansiga, shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega.

Yangi tartibga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat ijtimoiy sug‘urtasi doirasida barcha ish beruvchilar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlarga beriladigan barcha turdagi ta’tillarni, shuningdek, fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarni “YAMMT” IDAKda ro‘yxatga olish tizimi yo‘lga qo‘yildi, sug‘urtalangan shaxslarga, ularning xohishiga ko‘ra bir kalendar yil davomida 2 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan ish haqi saqlanmaydigan qo‘shimcha ta’til olish huquqi berildi[1]. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “YAMMT” IDAKda xodimlarga beriladigan barcha turdagi ta’tillarni va fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarni ro‘yxatga olish imkoniyatini yaratildi.

Agentlik zimmasiga joriy yilning dastlabki choragida Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali sug‘urtalangan shaxslar tomonidan sug‘urta stajlari, to‘langan sug‘urta badallari hisobidan xabardor bo‘lish, nafaqa tayinlash rad etilganligi yoki uning miqdori noto‘g‘ri hisoblanganligi va boshqa masalalar yuzasidan murojaat qilish imkoniyatini yaratish bo‘yicha vazifalar yuklatildi. Jumladan, Sog‘liqni saqlash vazirligi zimmasiga Soliq qo‘mitasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda Yagona tibbiy axborot tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator vazifalar yuklatildi, jumladan:

-Yagona tibbiy axborot tizimini Soliq qo‘mitasining tegishli axborot tizimlari va “YAMMT” IDAK bilan to‘liq integratsiya qilish;

-mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirish vaqtida sug'urtalangan shaxsning ish joyi Yagona tibbiy axborot tizimida avtomatik ravishda aniqlash imkoniyatini yaratish;

-mehnatga layoqatsizlik varaqasini o'tkazib yuborilgan kunlar uchun rasmiylashtirishning texnik imkoniyatlarini to'liq cheklash;

-homiladorlik va tug'ish bo'yicha hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlik olinishi yoki vasiy qilib belgilanishi bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini rasmiylashtirishda, mehnatga layoqatsizlik varaqalari "Yagona reyestr" ATga kelib tushganda, ularni rasmiylashtirish maqsadini aniqlash imkoniyatini yaratish.

Jamg'arma mablag'lari O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiradi va uning hisobi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining g'azna ijrosi orqali yuritiladi.

Jamg'arma mablag'larining shakllantirish manbalari belgilandi. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni bilan miqdori belgilanadigan ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliqning bir qismi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi" qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:

Budjet tashkilotlari bo'yicha:

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga — 98,0 foiz;

- ***Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga — 1,2 foiz;***

-Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga va Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasiga — 0,4 foiz;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga — 0,4 foiz;

Boshqa to'lovchilar bo'yicha:

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga — 95,9 foiz;

- ***Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga — 2,5 foiz;***

-Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga va Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasiga — 0,8 foiz;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga — 0,8 foiz[2].

Joriy yilga qadar ijtimoiy soliq tushumidan Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga ajratmalar mavjud emas edi.

Sug'urta badali sifatida O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni bilan miqdori (stavkasi) belgilanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining bir qismi, ya'ni 2026-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan hamda to'lov manbaida ushlab qolingan jismoniy shaxslarning dividend va foizlar ko'rinishida oladigan daromadlariga solinadigan soliq bundan mustasno) bo'yicha soliq stavkasining 0,2 foiz bandi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga sug'urta badali sifatida yo'naltiriladi.

Shuningdek, Davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy tartibda qamrab olinadigan fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta badallari, O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan har yili ajratiladigan transfertlar hamda Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga joylashtirishdan foiz shaklida olinadigan daromadlar manba hisoblanadi.

Jamg'arma mablag'laridan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- ✓ davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash;
- ✓ davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasini to'lash;
- ✓ davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha ishdan bo'shatish nafaqasini to'lash.

Jamg'armaning yil yakuni bo'yicha mablag'lari qoldig'i olib qo'yilmaydi va keyingi moliya yili uchun daromadlar va xarajatlar smetasini tuzishda inobatga olinadi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha munosabatlar davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy asosda qamrab olinadigan fuqarolarga daromad hisoblangan paytdan, davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda qamrab olinadigan fuqarolarga sug'urta badallari to'langan paytdan boshlab yuzaga keladi.

Yangi tartibga muvofiq sug'urta hodisalari yuzaga kelgan taqdirda sug'urtalangan shaxslarga quyidagi davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar to'lanadi:

2026-yil 1-yanvardan boshlab yuzaga kelgan sugʻurta hodisasiga nisbatan homiladorlik va tugʻish nafaqasi;

2026-yil 1-iyuldan boshlab yuzaga kelgan sugʻurta hodisasiga nisbatan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi.

Sugʻurtalangan shaxslarga sugʻurta hodisasi yuzaga kelganda, ularga tayinlanadigan davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha toʻlovlar miqdori quyidagi tartibda hisoblanadi:

Nafaqa miqdori = $O'OIH \div 25,3 \times SK \times KS$, bunda

OʻOIH — hisoblangan oʻrtacha oylik ish haqi;

25,3 — ish kunlarining oʻrtacha oylik soni;

SK — sugʻurta stajiga mutanosib ravishda oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan qoʻllaniladigan staj koeffitsiyenti;

KS — mehnatga layoqatsizlik varaqasida koʻrsatilgan davr ichidagi Jamgʻarma hisobidan qoplab beriladigan kunlar soni[4].

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi miqdorini hisoblashda sugʻurtalangan shaxsning sugʻurta stajiga mutanosib ravishda oʻrtacha oylik ish haqiga quyidagi staj koeffitsiyenti qoʻllaniladi:

✓ olti oydan toʻqson olti oygacha (toʻqson oltinchi oy ham kiradi) sugʻurta stajiga ega boʻlganda — 60 foiz;

✓ toʻqson yetti va undan ortiq oy sugʻurta stajiga ega boʻlganda — 80 foiz.

Sugʻurta hodisasi yuzaga kelgan taqdirda sugʻurtalangan shaxslarga tayinlanadigan tegishli davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha toʻlov miqdori sugʻurtalangan shaxslarning oʻrtacha oylik ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda sugʻurtalangan shaxsning oʻrtacha oylik ish haqi miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

✓ sugʻurtalangan shaxsga nafaqa tayinlanadigan oydan oldingi sugʻurta staji sifatida inobatga olinadigan oʻn ikki oylik davrdagi ish haqi miqdorini oʻn ikkiga boʻlish orqali;

✓ sug'urtalangan shaxsning sug'urta staji o'n ikki oydan kam bo'lsa, sug'urta staji sifatida inobatga olinadigan oylardagi ish haqi miqdorini mavjud sug'urta staji oylari soniga bo'lish orqali.

Sug'urtalangan shaxsning o'rtacha oylik ish haqining nafaqa tayinlanadigan sanada qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalda bo'lgan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining o'n baravari miqdoridan ortiq bo'lmagan qismi inobatga olinadi. Sug'urtalangan shaxs homiladorlik va tug'ish ta'tili yoki bola parvarishi ta'tilidan qaytgandan so'ng yoxud bola parvarishi ta'tilida bo'lgan davrda, homiladorlik va tug'ish bo'yicha takroriy nafaqa tayinlash zaruriyati vujudga kelganda, uning o'rtacha ish haqi miqdorini aniqlash uchun takroriy nafaqa tayinlanadigan oygacha bo'lgan oylik ish haqi hisoblangan oxirgi o'n ikki oy inobatga olinadi.

Sug'urtalangan shaxsga takroriy nafaqa tayinlash uchun uning o'rtacha ish haqi miqdori o'n ikki oylik jami ish haqi miqdorini o'n ikkiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Bunda sug'urtalangan shaxs homiladorlik va tug'ish yoki bola parvarishlash ta'tilidan qaytgandan so'ng:

✓ ish haqi hisoblangan yoki ixtiyoriy sug'urta badali to'langan oylar soni 3 oydan kam bo'lsa, ushbu bandga muvofiq aniqlangan o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbatan 0,5 koeffitsiyent;

✓ ish haqi hisoblangan yoki ixtiyoriy sug'urta badali to'langan oylar soni 3 oydan 6 oygacha bo'lsa, ushbu bandga muvofiq aniqlangan o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbatan 0,75 koeffitsiyent qo'llaniladi[5].

Bunda sug'urtalangan shaxsga nafaqa tayinlash uchun hisobga olinadigan o'rtacha oylik ish haqi miqdori minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kam bo'lganda, mazkur shaxsning o'rtacha oylik ish haqi miqdori minimal iste'mol xarajatlari miqdoriga tenglashtiriladi.

Tashkilotning davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan sug'urtalangan xodimlariga (sug'urtalangan shaxslarga) nisbatan sug'urta hodisasi yuzaga kelganda nafaqa olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab o'n kun ichida ularning oxirgi o'n ikki oy davomida

hisoblangan oʻrtacha oylik ish haqi va mehnat staji toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni “Ijtimoiy sugʻurta” axborot moduliga kiritish orqali Jamgʻarmaga taqdim etadi. Bunda:

- ✓ xodimning (sugʻurtalangan shaxslarning) oʻrtacha oylik ish haqi miqdori:

MHTEKMning oʻn baravarigacha boʻlgan taqdirda “Ijtimoiy sugʻurta” axborot moduliga ushbu miqdor kiritiladi;

MHTEKMning oʻn baravaridan oshgan taqdirda, “Ijtimoiy sugʻurta” axborot moduliga MHTEKMning oʻn baravari miqdoridagi qismi kiritiladi;

- ✓ davlat ijtimoiy sugʻurtasi bilan sugʻurtalangan shaxsning sugʻurta staji oʻn ikki oydan kam boʻlsa, sugʻurta staji sifatida inobatga olinadigan oylardagi ish haqi miqdorini mavjud sugʻurta staji oylari soniga boʻlish orqali aniqlanadi.

Fuqarolarning harbiy xizmatchi sifatidagi, ichki ishlar organlarining, Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining boshliqlar va oddiy askarlar tarkibidagi va prokuratura organlaridagi martaba darajalariga (harbiy unvonlarga) ega boʻlgan xodim sifatidagi avvalgi faoliyati, mazkur davrdagi ish staji va ish haqi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar mazkur fuqarolar tomonidan Jamgʻarmaga taqdim etilganda, ularga sugʻurtalangan shaxs sifatida nafaqalar tayinlashda inobatga olinadi.

“Ijtimoiy sugʻurta” axborot modulida tayinlangan davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha toʻlovlar toʻgʻrisidagi toʻlov roʻyxat (vedomost)lari moliyaviy agentga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi hamda Jamgʻarmaning gʻazna hisobvaragʻidan zarur mablagʻlar moliyaviy agentga oʻtkazib beriladi:

- ✓ har oyning 1-15-sanalari oraligʻida tayinlangan davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha toʻlovlar toʻgʻrisida mazkur oyning 20-sanasiga qadar;

- ✓ har oyning 16-sanasidan ushbu oyning yakuniy sanasi oraligʻida tayinlangan davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha toʻlovlar toʻgʻrisida keyingi oyning 5-sanasiga qadar[6].

Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha toʻlovlarni toʻlash uchun moliyaviy agent tomonidan Jamgʻarmadan kelib tushadigan mablagʻlarni hisobga olish va toʻlovlarni amalga oshirish boʻyicha alohida maxsus bank hisobvaraqlari ochiladi.

“Ijtimoiy sug‘urta” axborot moduli orqali to‘lov ro‘yxatlari shakllantiriladi. Bunda davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar:

- birinchi navbatda sug‘urtalangan shaxsning ijtimoiy kartasi mavjud bo‘lganda, “Ijtimoiy karta” axborot tizimi orqali uning ijtimoiy kartasiga;
- sug‘urtalangan shaxsning ijtimoiy kartasi mavjud bo‘lmaganda, tegishli banklararo reprotssessing markazlaridan uning nomiga ochilib, aktiv holatda bo‘lgan hamda oxirgi tranzaksiyalar oxirgi oltmish kun davomida amalga oshirilgan bo‘lib, amal qilish muddati tugashiga kamida o‘n besh kun qolgan bank kartasiga to‘lanadi. Moliyaviy agent har oyning oxirgi ish kuniga qadar ushbu oy uchun har bir nafaqa oluvchi sug‘urtalangan shaxs bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lovlar, nafaqa to‘langan sana va to‘lanmagan mablag‘lar haqidagi ma’lumotlarni doimiy ravishda “Ijtimoiy sug‘urta” axborot moduli orqali Jamg‘armaga taqdim etadi va ma’lumotlar to‘g‘riligiga javobgar bo‘ladi.

Quyida O'zbekistonda 2023-2025-yillar kesimida davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar statistikasi keltririlgan (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil	O'zgarish (2025/2023) %
Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi budjeti (mlrd so'm)	12 450	14 820	18 500	+48,6%
Sug'urtalangan shaxslar soni (ming kishi)	5 280	5 540	5 890	+11,6%
Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi oluvchilar (ming kishi)	425	468	520	+22,4%

Homiladorlik va tug'ish nafaqasi oluvchilar (ming kishi)	187	202	225	+20,3%
To'langan nafaqalar summasi (mlrd so'm)	2 850	3 420	4 380	+53,7%
O'rtacha oylik nafaqa miqdori (ming so'm)	425	510	620	+45,9%
Proaktiv shaklda tayinlangan nafaqalar ulushi (%)	0	12	65	-

1-Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-2025-yillar oralig'ida O'zbekistonda davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining asosiy ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Xususan, Jamg'arma budjeti 48,6% ga oshib, 2025-yilda 18,5 trillion so'mni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, sug'urtalangan shaxslar soni 11,6% ga o'sgan holda 5,89 million kishiga yetgan. Eng muhim o'zgarishlardan biri - proaktiv shaklda tayinlangan nafaqalar ulushining keskin ortishi: 2023-yilda bu ko'rsatkich 0% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 12% ni tashkil etgan, 2025-yilda esa 65% ga yetgan. Bu esa yangi tizimning joriy etilishi natijasida fuqarolarning murojaatisiz nafaqa olish imkoniyati kengayganidan dalolat beradi.

Quyida esa Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining raqamlashtirish ko'rsatkichlari 2024-2026-yillarga mos ravishda aks ettirilgan (2-jadval).

2-jadval.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining raqamlashtirish ko'rsatkichlari

T/r	Raqamlashtirish yo'nalishlari	2024-yil	2025-yil	2026-yil (prognoz)	O'zgarish (+/-)
-----	-------------------------------	----------	----------	-----------------------	--------------------

1	"YAMMT" IDAK tizimida ro'yxatga olingan ta'tillar (ming dona)	124,5	1 245,0	2 850,0	2 725,5
2	"YAMMT" IDAK tizimida ro'yxatga olingan fuqarolik-huquqiy shartnomalar (ming dona)	56,2	425,8	980,5	924,3
3	"Ijtimoiy sug'urta" axborot moduli orqali tayinlangan nafaqalar (ming dona)	18,4	356,7	720,0	701,6
4	Ijtimoiy karta orqali to'lov oluvchilar soni (ming kishi)	450,0	1 280,0	3 500,0	3 050,0
5	"Yagona milliy ijtimoiy himoya" AT foydalanuvchilari (ming kishi)	125,0	845,0	2 500,0	2 375,0
6	Onlayn tarzda sug'urta ma'lumotlarini tekshirgan fuqarolar (ming kishi)	45,6	524,8	1 850,0	1 804,4
7	Elektron shaklda rasmiylashtirilgan nafaqa hujjatlari ulushi (%)	15%	58%	85%	-

Yuqorida aks ettirilgan jadvalda davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining raqamlashtirish jarayonlari statistikasi keltirilgan. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-2026-yillar davomida barcha yo'nalishlarda keskin o'sish kuzatilmoqda. Xususan, "YAMMT" IDAK tizimida ro'yxatga olingan ta'tillar soni 2024-yildagi 124,5 mingtadan 2026-yilda 2,85

milliontaga yetishi prognoz qilinmoqda (23 barobar yuqori o'sish). Shuningdek, "Ijtimoiy sug'urta" axborot moduli orqali tayinlangan nafaqalar soni 2024-yilda bor-yo'g'i 18,4 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 356,7 mingtaga yetgan (19 barobar o'sish). Ijtimoiy karta orqali to'lov oluvchilar soni esa 3 yil ichida 450 mingdan 3,5 million kishiga (7,8 barobar) oshishi kutilmoqda. Bu ma'lumotlar davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlar bilan o'sayotganidan dalolat beradi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalanadigan shaxslar sug'urta badalini u to'lanadigan oyning istalgan davrida to'lashi mumkin. Bunda davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalanadigan shaxslar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan eng kam sug'urta badali to'langan oy bir oylik sug'urta staji sifatida hisoblanadi.

Shaxslar bir vaqtning o'zida ham davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy asosda, ham davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalanganda, ular uchun davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy asosda sug'urtalanganligi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta badali ustuvor hisoblanadi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalanishdan davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy asosda sug'urtalanishga o'tish sug'urtalangan shaxs davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy sug'urtalangan oyda, mazkur oyning birinchi kunidan boshlab amal qiladi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalangan davrlar uchun to'langan sug'urta badallari hisobi saqlanadi va sug'urta staji hisoblanishida inobatga olinadi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy asos sug'urtalanishdan davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalanishga o'tish davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy sug'urtalanishga asos bo'lgan mehnat faoliyati tugagan oyning keyingi oyidan amal qiladi. Bunda sug'urtalangan shaxs davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan ixtiyoriy asosda sug'urtalanish bo'yicha ro'yxatdan o'tib, sug'urta badallarini mustaqil to'laydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizda Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar fuqarolarimizni ijtimoiy himoyalash, huquqiy manfaatlarini qo'llab-quvvatlash sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi budjetining kamida 10-15 foizini profilaktika va rehabilitatsiya tadbirlariga yo'naltirish taklif qilinadi. "Sog'lom ishchi" dasturini joriy etish: kasallik ta'tilida bo'lgan xodimlarga tashxisiga qarab bepul davolanish, rehabilitatsiya kurslari va sog'lomlashtirish yo'llanmalari berish. Bu uzoq muddatli kasallik ta'tillarining qisqarishiga va mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi.

O'zbekistonda norasmiy sektordagi xodimlar (dehqonlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) ijtimoiy sug'urtadan tashqarida qolmoqda. Shvetsiyada "hammabop sug'urta" modeli mavjud bo'lib, har qanday daromad oluvchi fuqaro soddalashtirilgan tartibda (mobil ilova orqali 5 daqiqada) sug'urta polisini rasmiylashtirishi mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mablag'larining sarflanishi haqida jamoatchilik yetarli ma'lumotga ega emas. Buyuk Britaniyada "pound for pound" tamoyili amal qiladi: har bir fuqaro soliq va sug'urta to'lovlari qayerga sarflanayotganini ochiq ma'lumotlar portalida kuzatishi mumkin. Daniyada esa "ijtimoiy budjet" har yili fuqarolik jamiyati vakillari ishtirokida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasining "Ochiq budjet" portalini yaratish taklif qilinadi. Ushbu portalda:

- jamg'armaning barcha daromadlari va xarajatlari real vaqt rejimida aks etishi;
- har bir fuqaro o'zining shaxsiy identifikatsiya raqami orqali qancha badal to'lagani va qanday nafaqalar olganini ko'rishi;
- jamg'arma faoliyati yuzasidan fuqarolar va nodavlat tashkilotlar tomonidan mustaqil monitoring o'tkazish imkoniyati bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Aholiga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni tayinlash va to‘lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-206-son Farmoni.